

XITOIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI EKONOMETRIK TAHLILI.

Abduraxmonova Iqboloy Ne'matulla qizi

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti, magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Xitoyda qayta tiklanadigan energiya manbalari tahlili hamda ekonometrik amallar yordamida kelgusi yillar uchun bashoratlar ko'rsatilgan. Shuningdek, ekologik muammolar hamda ularni bartaraf etib iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etish hamda rivojlantirish tamoyillari ko'rib chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytirilishi uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tish hamda uning afzalliklari yoritib beriladi.*

Tayanch so'zlar: *ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, "yashil iqtisodiyot", eko-innovatsiya, eko-investitsiya, qayta tiklanadigan energiya, iqtisodiyotni ekologizatsiyalash, "yashil" ish o'rinlari, ekologik texnologiyalar, atrof-muhit.*

Xitoy asosan qayta tiklanadigan energiyaga urg'u bermoqda. Va u kelgusi yillar uchun o'zi uchun yo'l xaritasini tuzgan. Jumladan 2030 yilga borib Xitoy quyidagi maqsadlarni amalga oshirmoqchi:


- Qayta tiklanadigan energiya iste'moli ulushini taxminan 25% ga oshirish;
- Energiyani iste'mol qiluvchi asosiy tarmoqlarda rivojlangan mamlakatlarning energiya samaradorligi darajasiga erishish;
- YaIM birligiga CO2 emissiyasini 2005 yil darajasiga nisbatan 65% gacha kamaytirish
- 1200 gigavatt dan ortiq shamol va quyosh energiyasi quvvatlarini o'rnatish;
- 19 milliard kub metr gacha bo'lgan hududni o'rmonlashtirish, 25% hududni yashillashtirish;

Xitoyning 2060 yil uchun iqlim maqsadlari quyidagilardan iborat:


- Uglarod neytral bo'lish;
- 80% dan ortiq qazilma energiya iste'molining ulushiga erishish;
- Ilg'or xalqaro darajada keng qamrovli energiya samaradorligiga ega bo'lish;
- Yashil, past uglarodli va aylanma iqtisodiyotni va toza, kam uglarodli, xavfsiz va samarali energiya tizimini yaratish;

Iqlim maqsadlariga erishish uchun Xitoy yashil energiya manbalarini kengaytiradi va ko'mirdan foydalanishni kamaytiradi, yashil texnologiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va kengaytirishga katta sarmoya kiritadi, shuningdek, sanoat sektori uchun energiya zichligini oshiradi. Bundan tashqari, uglarod chiqindilarini hisobga olish va aniqroq ma'lumotlarni taqdim etish uchun standartlashtirilgan tizim hozirda ishlab chiqilmoqda, 2023 yilgacha taqdim etilishi va 2025 yilga qadar yakunlanishi kerak. Hududiy amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlariga katta mas'uliyat yuklanadi. Siyosat hali ishlab chiqilayotganligi sababli, maqsadlar va aniq qadamlar haqida batafsil hujjatlar doimiy

ravishda chop etiladi.”. Xitoy xalq respublikasi bugun qayta tiklanadigan energiyani joriy etish bo’yicha yetakchi davlat hisoblanib mamlakatimizda bugungi kunda o’rnatilayotgan quyosh panellari, saqlash uskunalari va texnikalari asosan Xitoydan import qilinmoqda. Shuning uchun tadqiqotda tahlil qilinadigan davlat sifatida Xitoy davlati tanlandi. Aynan qayta tiklanadigan energiya iste’moli bo’yicha 25 yillik statistika orqali keyingi 3 yillik energiya iste’moli prognoz qilindi. Ekonometrik tahlil R-studio ilovasi orqali amalga oshirildi. Dastlab ma’mulotlarni kirgizib plot buyrug’i orqali quyidagi grafikni chizamiz.




2.2.1-rasm. Qayta tiklanadigan energiya iste’moli , Xitoy, 1994-2022
Grafikdan ko’rish mumkinki, trend 1995-yildan asta sekinlik bilan pasayish
dinamikasiga ega. 2015-yilga kelib yana o’sib bordi.




2.2.2-rasm . Afc grafik. Ishonch oralig’iga tekshirish.

Vaqt qatorimizda laglarimiz ishonch oralig’idan chiqqan. Demak miqdorlarimiz tasodifiy emas. Endi trend model tuzamiz.



2.2.3-rasm . Chiziqli hamda parabolik trend modellari.

Qora asosiy grafigimizga eng yaqin turgan trend modelni tanlaymiz . Ko'k rangda chiziqli va yashil rangda parabolik trend modelimizdan ikkinchi ya'ni parabolic grafigimiz asosiy trendimizga(qora) yaqin shuning uchun yashil rangli grafikni tanladik. Keyingi qadamimiz qoldiqlarni tekshirish hamda ARIMA modelini tuzish.




2.2.4-rasm. Qoldiqlar tahlili.ARIMA modeli orqali

Lyung-box testiga ko'ra 6ta lagi uchun P-value 0.0007347 ga teng (alfadan kichik), demak qoldiqlar avtokorrelyatsiyalanmagan.

Jarke-Berre testiga ko'ra p-value=0.4429 (alfadan katta), demak qoldiqlar normal taqsimlanmagan y trend parabolik modelimiz quyidagi tenglama asosida o'zgarib boryapti:

$$\varepsilon_t = 0.9323 + 0.2423 \cdot \varepsilon_{t-1} + w_t$$




2.2.4-rasm . Oddiy silliqdash orqali bashoratlash , 2023-2025 yillar.

Grafikda qora chiziq orqali asosiy o'zgaruvchimiz belgilangan bo'lib qizil chiziq orqali esa silliqdash orqali chizilgan qiymatni ko'rish mumkin. To'q ko'k chiziqda 3 yil uchun bashorat qilingan va u keying ochroq qismda o'zgarishi mumkin . maksimal darajada och ko'k Ichida raqamlarimiz o'zgarishi mumkin . lekin undan chiqib ketmaydiSilliqdashni vaqt qatorimizda laglarimiz ishonch oralig'idan chiqmay qolgungigacha bajaramiz .

Qoldiqlarimiz vaqt qatorida ishonch oralig'idan chiqib ketmadi.

qayta tiklanadigan energiya iste'moli % da- 1994-20



Pacf orqali vaqt qatorini chizganimizda laglarimiz ishonch oralig'ida yotibdi.

qiymati arima(0;1;0) modelimiz

$$Y_t = Y_{(t-1)} + w_t$$

$$W_t = Y_t - Y_{(t-1)}$$

va so'nggi bashoratimiz 2023-2024-2025 yillar uchun:
2023 yil uchun qayta tiklanadigan energiya iste'moli- 14.98696%
2024 yil uchun esa 15.43938% 2025 yil uchun 15.82056% qayta tiklanadigan energiya
iste'mol qilinishi bashorat qilinadi.
Ya'ni Xitoyda qayta tiklanadigan energiya iste'moli oshishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."
2. Порфирьев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
3. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
4. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari
5. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."
6. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori